



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
**2023- yil yanvar-iyul**






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligida ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2858** tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgustga nisbatan 9 taga ko'paygan (o'sish sur'ati 100,3%). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 85 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **5177,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **104,3 %** ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **209,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **149,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4967,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **678,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,0 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik , mlrd. So'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>5 177,2</b>	<b>104,3</b>	<b>209,3</b>	<b>149,6</b>	<b>4 967,9</b>	<b>103,0</b>
Nukus shahri	962,3	100,9	46,1	108,3	916,2	100,6
tumanlar:						
Amudaryo	431,8	103,1	8,7	79,4	423,1	103,7
Beruniy	282,7	103,5	17,1	108,9	265,6	103,1
Bo'zatov	65,9	103,4	0,1	60,4	65,7	103,5
Qorao'zak	239,6	103,3	0,7	91,5	238,9	103,4
Kegeyli	218,1	103,1	0,8	90,8	217,3	103,1
Qo'ng'iroq	408,8	103,2	10,0	88,2	398,9	103,6
Qonliko'l	201,3	103,4	0,3	58,4	201,1	103,5
Mo'ynoq	55,7	105,0	0,2	63,6	55,5	105,3
Nukus	150,9	103,1	0,5	63,3	150,4	103,3
Taxiatosh	225,2	146,1	80,8	652,1	144,4	101,9
Taxtako'pir	175,5	103,1	0,4	65,5	175,0	103,2
To'rtko'l	590,8	104,1	21,3	114,6	569,5	103,8
Xo'jayli	474,9	103,8	8,1	89,3	466,8	104,1
Chimboy	262,6	103,2	5,9	92,0	256,8	103,5
Shumanay	115,9	103,0	0,4	63,0	115,6	103,2
Ellikqal'a	315,2	103,3	7,9	96,8	307,3	103,5

2023- yilning yanvar-iyul oylarida 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan respublikaning Xo'jayli (103,8 %), Taxiatosh (146,1 %), To'rtko'l (104,1%) va Mo'ynoq (105,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

# TUMAN KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari,  
foizda**




2023- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati 104,3% ni tashkil qildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4967,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **103,0** % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,0%** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **149,6%** ga o'sdi va **209,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **4,0** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Bo'zatov (99,8 %) va Qonliko'l (99,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **4,0** % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiatosh (35,9%), Beruniy (6,0%), Nukus shahri (4,8%) va To'rtko'l (3,6%) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 612,8</b>	<b>102,9</b>
Nukus shahri	2 868,2	99,4
tumanlar:		
Amudaryo	2 063,0	101,2
Beruniy	1 399,6	101,5
Bo'zatov	3 007,8	102,9
Qorao'zak	4 420,3	102,4
Kegeyli	2 934,9	102,4
Qo'ng'irot	3 030,8	101,9
Qonliko'l	3 784,1	102,2
Mo'ynoq	1 663,2	104,1
Nukus	2 841,8	101,2
Taxiatosh	2 951,5	144,9
Taxtako'pir	4 510,9	107,8
To'rtko'l	2 618,7	102,4
Xo'jayli	3 721,8	102,5
Chimboy	2 281,9	102,4
Shumanay	2 009,2	101,9
Ellikqal'a	1 871,7	101,3


2023- yilning yanvar-iyul holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2612,8** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **102,9%**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako'pir (**4510,9** ming. so'm), Qorao'zak (**4420,3** ming. so'm) va Xo'jayli (**3721,8** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Respublika bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **678,8** mld. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **108,0%** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **323,1** mld. so'mni (109,1%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **355,7** mld so'mni tashkil etdi (**107,0 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko‘rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagи qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rirlari, turg‘un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	<b>Dehqon bozorlari, mlrd. so'm</b>	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	<b>Chorva bozorlari, mlrd. so'm</b>	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>678,8</b>	<b>108,0</b>	<b>323,1</b>	<b>109,1</b>	<b>355,7</b>	<b>107,0</b>
Nukus shahri	78,5	113,9	37,4	120,8	41,1	118,5
tumanlar:						
Amudaryo	43,5	115,9	20,7	117,2	22,8	114,6
Beruniy	46,5	117,4	22,1	109,3	24,4	107,3
Bo'zatov	14,3	88,7	6,8	90,0	7,5	87,5
Qorao'zak	36,4	107,3	17,3	108,3	19,1	106,6
Kegeyli	67,2	112,9	32,0	116,4	35,2	113,8
Qo'ng'iroq	43,6	104,9	20,7	106,0	22,8	103,7
Qonliko'l	31,0	103,8	14,7	105,2	16,2	102,7
Mo'ynoq	7,5	104,7	3,6	107,0	3,9	103,9
Nukus	32,2	106,2	15,3	99,9	16,9	97,9
Taxiatosh	18,4	107,2	8,8	102,2	9,6	99,5
Taxtako'pir	29,7	105,3	14,1	120,9	15,5	118,4
To'rtko'l	93,4	105,2	44,5	110,4	49,0	108,4
Xo'jayli	41,7	105,1	19,9	95,4	21,9	93,5
Chimboy	49,4	102,7	23,5	103,6	25,9	101,6
Shumanay	15,7	107,4	7,5	108,2	8,2	107,0
Ellikqal'a	29,8	107,8	14,2	109,1	15,6	106,5

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **323,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**109,1** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>149,2</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>31,0</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>33,2</b>
	<b>Tovuq go‘shti</b> <b>15,9</b>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar) <b>14,6</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...) <b>20,5</b>
	<b>Tuxum</b> <b>18,8</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b> <b>13,2</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>9,8</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>10,2</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>6,7</b>
<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	-

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **355,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **307,8** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **39,3** mlrd. so'mni, otlar – **5,5** mlrd. so'mni, parrandalar – **3,1** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	189,0
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	52,8
 1 yoshgacah bo'lgan yosh mollar	66,0
 Qo'ylar	24,8
 Otlar	5,5
 Echkilar	14,5
 Kurka, o'rdak, g'oz	2,4
 Tovuqlar	0,7
 Quyonlar	-
 Qushlar	-

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1051** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – avgust holatiga nisbatan **33** taga ko‘paygan va o‘sish sur’ati **103,2 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **1051** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyul oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,9 %** ni tashkil etib, **151,9 mld. so‘mga** yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,4 %** ga o’sdi.. Bunda savdo aylanmasining **100,0%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g’ri keldi.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mld. so‘m	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>151,9</b>	<b>104,4</b>			<b>151,9</b>	<b>104,6</b>
Nukus shahri	68,2	87,6			68,2	87,9
tumanlar:	-				-	
Amudaryo	7,7	101,2			7,7	101,2
Beruniy	5,8	102,2			5,8	102,2
Bo‘zatov	0,5	103,7			0,5	103,7
Qorao‘zak	3,4	139,1			3,4	139,1
Kegeyli	1,8	104,5			1,8	104,5
Qo‘ng‘irot	30,7	154,6			30,7	154,6
Qonliko‘l	1,5	92,1			1,5	92,1
Mo‘ynoq	0,6	163,5			0,6	163,5
Nukus	1,2	203,0			1,2	203,0
Taxiatosh	3,5	141,7			3,5	141,7
Taxtako‘pir	1,0	126,9			1,0	126,9
To‘rtko‘l	8,9	105,0			8,9	105,0
Xo‘jayli	8,7	105,0			8,7	105,0
Chimboy	3,8	132,6			3,8	132,6
Shumanay	0,8	110,2			0,8	110,2
Ellikqal‘a	3,6	104,0			3,6	104,0

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- avgust holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1238,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **155,5%** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **543,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **146,7%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **695,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **152,9 %**) tashkil qildi.

### **Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda**



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Qaraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 238,7</b>	<b>100,0</b>
Nukus shahri	833,5	67,3
tumanlar:		-
Amudaryo	13,0	1,0
Beruniy	302,7	24,4
Bo'zatov	0,5	0,0
Qorao'zak	0,8	0,1
Kegeyli	58,9	4,8
Qo'ng'irot	1,2	0,1
Qonliko'l	0,6	0,0
Mo'ynoq	0,8	0,1
Nukus	-	-
Taxiatosh	2,5	0,2
Taxtako'pir	0,4	0,0
To'rtko'l	9,8	0,8
Xo'jayli	2,3	0,2
Chimboy	5,8	0,5
Shumanay	0,0	0,0
Ellikqal'a	6,0	0,5

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**833,5 mlrd. so'm**), Beruniy (**302,7 mlrd. so'm**) va Kegeyli (**58,9 mlrd. so'm**) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



41,1

Respublika bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1901,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **108,4%** ni tashkil qildi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1662,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **107,0%**ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **87,4 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Nukus shahrida (134,9%) va Taxiatsosh tumanida (119,1%) kuzatildi.

2023- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **1014** tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgust holatiga nisbatan **5** taga kamaygan, o'sish sur'ati **99,5%** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **7** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1007** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 901,3</b>	<b>108,4</b>	<b>239,1</b>	<b>119,5</b>	<b>1 662,2</b>	<b>107,0</b>
Nukus shahri	830,8	106,8	7,8	134,9	823,0	106,6
tumanlar:						
Amudaryo	40,2	108,9	-		40,2	108,9
Beruniy	104,7	109,5	-		104,7	109,5
Bo'zatov	3,9	104,4	-		3,9	104,4
Qorao'zak	29,1	110,5	-		29,1	110,5
Kegeyli	12,3	130,5	-		12,3	130,5
Qo'ng'irot	76,4	110,2	-		76,4	110,2
Qonliko'l	39,9	105,2	-		39,9	105,2
Mo'ynoq	60,7	105,9	-		60,7	105,9
Nukus	30,5	104,6	-		30,5	104,6
Taxiatsosh	282,9	117,0	231,3	119,1	51,6	108,8
Taxtako'pir	19,2	105,8	-		19,2	105,8
To'rtko'l	202,3	105,0	-		202,3	105,0
Xo'jayli	55,0	107,3	-		55,0	107,3
Chimboy	41,1	109,4	-		41,1	109,4
Shumanay	1,9	110,2	-	-	1,9	110,2
Ellikqal'a	70,3	105,9	-		70,3	105,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 61 222-67-45**